



IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH DOKTORANT VA DOKTORANTLARNING “TAFAKKUR VA TALQIN”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI ILMIY-AMALIY ANJUMAN TO‘PLAMI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami*

Buxoro 2025-yil, 15-may

Eng kam sonli turlar *Trigonoscelis seriata* va *Psammocryptus bogatchevi* bo'lib, ular tadqiqotlarda bitta namunada topilgan. Qayd etish joizki, dalada *Catomus niger*, *Eorophanta tomentosa*, *Lasiostola hirta*, *Podhomala nitida*, *Podhomala heydeni* va *Sternodes caspicus* turlari kuzatilmagan, bu ularning soni keskin kamayib ketganidan dalolat beradi. O'tgan davrda O'zbekiston, Turkmaniston va Eronda keng tarqalgan *Sternodes caspicus* turini aniqlash bo'yicha to'rt yillik maxsus izlanishlarimiz ijodiy samara bermadi. Biroq SamDUning entomologik kolleksiyasida ushbu turning 50 dan ortiq namunalari S.G. O'tgan asrning 50-60-yillarida Bronshteyn.

Kelgusida ushbu turlar populyatsiyalari holatini o'rganishga qaratilgan maxsus tadqiqotlar olib borish va uning natijalari asosida ularni respublika Qizil kitobiga kiritish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarur.

Adabiyotlar

1. Alimova L. K. et al. Diversity and features of the fauna of herpetobiont beetles (Carabidae, Tenebrionidae, Elateridae, Scarabaeidae) of the Lower Zeravshan, Uzbekistan //Biosystems Diversity. – 2024. – T. 32. – №. 1. – С. 73-82.
 2. Alimova L. X. CARABIDAE OILASI VAKILLARINING TAKSONOMIK
 3. Alimova L. Бухоро ва Қорақўл оазиси визилдоқ қўнғизларининг (Coleoptera, Carabidae) таксономик таркиби //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.
 4. Alimova L. Таксономический состав фауны жуков-щелкунов (COLEOPTERA, ELATERIDAE) нижнего Зарафшана //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 38. – №. 38.
 5. Chigray S. 2019. Revision of the Palaearctic Pimeliini (Coleoptera, Tenebrionidae): The Genus *Podhomala* Solier, 1836. Entomological Review, 99(7): 924-948. DOI: 10.1134/S0013873819070066
- TARKIBI //Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2023. – Т. 2. – №. 4. – С. 58-60.
6. Непесова М.Г. Биология хлопковой чернотельки-*Opatroides punctulatus* Brulle (Coleoptera, Tenebrionidae) и описание ее личинки. Известия академии наук Туркменской ССР. Серия биологических наук, №2, 1965.
 7. Сафаров Т. 1962. Чернотелки (Coleoptera: Tenebrionidae), вредящие сельскохозяйственным культурам в Самаркандской области. Энтомологическое обозрение, 41 (4): 746-750.

QUYI ZARAFSHON VOHASI LANDSHAFTLARINING ISHLAB CHIQARISH IMKONIYATLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Samadova Mohigul Shoxnazarovna

BuxDU, geografiya ta'lim yo'nalishi talabasi

Ergasheva Mavjuda Komiljonovna

BuxDU, dotsenti, g.f.f.d. (PhD)

Quyí Zarafshon vohasida mamlakatimizning ma'muriy jihatdan 2 ta (Buxoro va Navoiy) viloyatlarining hududlari joylashgan. Bular Buxoro va Qorako'l vohalaridir. Vohaning kirish "darvoza"si Navoiy viloyatining Qiziltepa tumaniga tegishli. Uzoq asrlar davomida voha qishloq xo'jaligining yuqori darajada rivojlangan mintaqalaridan biri sifatida mashhur bo'lib keldi. Afsuski XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Quyí Zarafshon vohasida tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy omillar ta'siri natijasida cho'llanish jarayonlari avj oldi. Sug'oriladigan yerlardan olinadigan mahsulotlar hajmi, sifati pasaydi. Bu aholi daromadlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda.

Bugun Quyí Zarafshon vohasida 2 mln.dan ortiq aholi yashamoqda. Ularning ijtimoiy

hayotlarida voha landshaftlari muhim ahamiyatga ega. Demak, Quyi Zarafshon vohasi landshaftlari va ularni oqilona tashkil etish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi. Zarafshon daryosi suvlarini Buxoro hududi yerlariga yetib kelishi murakkablashgan davrda Quyi Zarafshon mintaqasida tez-tez takrorlanib turadigan tuproqlarning sho‘rlanishi, ichimlik suvining tanqisligi kabi muammolarni bartaraf etish, aholi soning oshishi, yangi aholi manzilgohlarining vujudga kelishi, sug‘oriladigan ekin maydonlarining kengayishi mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Voha geotizimlarining munosabatlarini o‘rganishda F.N.Milkov, V.B.Sochava, T.V.Zvonkova, A.A.Abulqosimov, I.Q.Nazarov, L.Alibekov va va boshqalar tomonidan O‘rta Osiyo va O‘zbekiston antropogen voha landshaftlari haqidagi ma‘lumotlardan foydalanildi.

Zarafshon vodiysining sharqdan g‘arbga tomon katta masofaga cho‘zilganligi, shu yo‘nalishda geomorfologik strukturaning va yer yuzasining dengiz sathidan balandligini o‘zgarib borishi, daryoning sharqda tor vodiyydan, o‘rta qismida tog‘oralig‘i botig‘idan oqib o‘tib, g‘arbda Turon tekisligi cho‘llariga kirib borishi bu havza tabiiy sharoitining xilma-xilligidan dalolat beradi. Shunday ekan, Zarafshon havzasida mavjud bo‘lgan voha landshaftlari ham tabiiy sharoitining xilma-xilligini o‘zida aks ettiradi. Bunday tabiiy geografik omillar Zarafshon havzasida joylashgan barcha voha landshaftlarini 3 guruhga – Yuqori Zarafshon, O‘rta Zarafshon va Quyi Zarafshon voha landshaftlariga bo‘lishga imkon beradi.

Quyi Zarafshon tabiiy geografik jihatdan Yuqori va O‘rta Zarafshondan farq qilib, Turon tekislik o‘lkasi hududida joylashgan va Zarafshon havzasining g‘arbiy qismi hisoblanadi. Quyi Zarafshondagi voha landshaftlari Zarafshon daryosining Buxoro va Qorako‘l deltalarida vujudga kelgan [2]. Bu yerdagi vohalar orasida eng qadimiylari Buxoro, Kogon va Qorako‘l vohalari, nisbatan yoshi Navoiy vohasi hisoblanadi. Quyi Zarafshon voha landshaftlari tipik cho‘l iqlimli sharoitda tarkib topgan bo‘lib, ular uchun sug‘oriladigan madaniy tuproqlarning qayta sho‘rlanish jarayoni xarakterli. Voha landshaftlarining dengiz sathidan o‘rtacha balandligi 200 – 1000 m atrofida [1].

Quyi Zarafshon vohasi landshaftlari va agrolandschaftlar doirasida sodir bo‘layotgan geoeologik vaziyatlar, ularga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, ichki suvlarning ifloslanishi va uning inson salomatligiga salbiy ta‘siri, voha landshaftlarining ekologik holatini optimallashtirish, texnogen landshaftlarni rekultivatsiya qilish hamda voha landshaftlarini muhofaza qilishning ilmiy va amaliy ahamiyati kabi masalalar muhim o‘rin tutadi.

Quyi Zarafshon voha landshaftlari tabiat olamining muayyan tarkibiy qismi bo‘lib, ularni muhofaza qilish, mahsuldorligini saqlab qolish, insoniyat manfaatlarini ko‘zlab kelajak avlod uchun asrab-avaylash va ulardan oqilona foydalanish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Voha landshaftlari esa odamzodni moddiy va ma‘naviy talablarini qondiradigan asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun inson paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab to hozirga qadar tabiatga ijobiy hamda salbiy ta‘sir etib, undan turli maqsadlarda foydalanib kelmoqda. Inson xo‘jalik faoliyatining tabiatga ta‘sir ko‘rsatish darajasi aholi soning regional va global masshtabda o‘sishi, sanoat korxonalarining rivojlanishi va fan-texnika taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq holda kuchayib bormoqda [1].

Vohada tabiatni muhofaza qilish keng ma‘nodagi tushuncha bo‘lib, u kompleks tadbirlar sistemasidan iborat. Bu murakkab sistema, tabiatni insoniyat manfaatlarini ko‘zlab hozirgi va kelajak avlod uchun saqlash, uni ongli ravishda va maqsadga muvofiq o‘zgartirish, foydalanishga yaroqsiz yerlarni rekultivatsiya qilish, tabiiy resusrlardan oqilona foydalanish, atmosfera havosini, yer osti va yer usti suvlarini ifloslanishini oldini olish, atrof-muhitni ekologik muvozanatini tiklash, agrolandschaftlarning mahsuldorligini saqlash va samaradorligini oshirish, ekin maydonlarini nitratlar, pestidsidlar va gerbitsidlar bilan zaharlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, geosistema va ekosistemalarning degradatsiyalanish jarayonini optimallashtirish, sug‘oriladigan yerlarda yuz berayotgan tuproq eroziyasiga va tuproqlarning qayta sho‘rlanishiga qarshi kurashish, geosistemalardan tabiat qonunlarini hisobga olgan holda oqilona foydalanish kabi tadbirlar majmuasidan tarkib topgan.

Quyi Zarafshon vohasi landshaftlarining ishlab chiqarish imkoniyatlari va ulardan samarali foydalanish, ekologik holatini tahlil qilish va muhofaza qilish borasida olib borilgan ishlar natijasida quyidagi takliflarni bildiramiz.

1. Voha landshaftlarining tabiiy geokomplekslardan asosiy farqi shuki, ular inson xo'jalik faoliyati tomonidan to'liq nazorat qilinadi va boshqarilish xususiyatlariga va o'zgarib borish xarakteriga ega. Buxoro va Qorako'l vohalari va unda yashovchi xalqlar hayoti doimo Qadimgi Zarafshon daryosi va uning tarmoqlari bilan bog'liq bo'lgan;
2. Quyi Zarafshon vohasi landshaftlarining mavjudlik faoliyatiga doimo hududning geografik sharoiti (iqlimi, ichki suvlari, tuprog'i, biologik dunyosi) katta ta'sir ko'rsatgan va bu omillarni hisobga olish zarur. Quyi Zarafshon vohasi landshaftlari quruq (arid) iqlimli bo'lib, havo harorati, namlanishi fasllar o'rtasida notekis taqsimlangan. Harorat yozda juda yuqori (46^0), bu garmsel, chang-to'zonli shamollar uchun sharoit yaratadi.
3. Vohalarda ichki suvlar chetdan keladi. Demak, vohalarda suvni tejash texnologiyalarini ishlab chiqish davr talabi. Vohalar geografik jihatdan daryo deltasida, orografik jihatdan past joylarda vujudga keladi. Demak, uning tuprog'i sho'rlanishga moyil.
4. Vohalar geosistemasida qishloq xo'jaligiga ekologik jihatdan toza va inson salomatligiga zarar yetkazmaydigan mahsulotlarni yetishtirish uchun tuproqlarni pestitsidlar, gerbitsidlar va boshqa kimyoviy moddalar bilan zaharlanishdan muhofaza qilish, uning mexanizmini ishlab chiqish va ekin maydonlariga me'yoridan ortiqcha zaharli moddalarni ishlatishni man etish zarur.

Hozirgi kunda Yer yuzida yashayotgan barcha aholi, jumladan, Quyi Zarafshon vohalarida istiqomat qilayotgan aholi ham ekologik tanglik keskinlashib va rivojlanib borayotgan davrda hayot kechirmoqda. Quyi Zarafshon voha landshaftlarini muhofaza qilish, ilmiy jihatdan asoslangan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish, uni izchillik bilan amaliyotda qo'llash mexanizmini tashkil etish va boshqarish sug'oriladigan agrogeokomplekslarni mahsuldorligini oshirishda katta ijobiy ahamiyatga ega. Ammo sug'oriladigan agrolandshaftlar mahsuldorligini pasayishiga sabab bo'layotgan salbiy jarayonlarning tobora kuchayib borishi bunday geokomplekslardan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda foydalanishni ilmiy asosda oqilona tashkil etish hamda yer-suv resurslarini muhofaza qilish uchun ham ekologik, ham iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lgan tadbirlarni belgilash va amalga oshirishni taqazo etadi. Voha landshaftlari bilan bog'liq bo'lgan geoeologik muammolarning yechimi tabiatdan foydalanishni optimallashtirishga yo'naltirilgan tabiat muhofazasi va meliorativ ishlarni tubdan yaxshilashga qaratilishi lozim.

Voha geosistemalari tarkibidan salmoqli o'rin egallagan agrolandshaftlar mahsuldorligini yildan-yilga kamayib ketishiga, madaniy geokomplekslarni cho'llanishga, tuproqlarning kambag'allashishiga sug'oriladigan maydonlarda ro'y berayotgan irrigatsion eroziyaning ta'siri nihoyatda katta. Agrolandshaftlarni bunday salbiy hodisalardan muhofaza qilish uchun agromelioratsiya, gidromelioratsiya, fitomelioratsiya kabi tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulqosimov A.A., Abdurahmonova Yu.X., Davronov K.Q. Zarafshon botig'i voha landshaftlari va ekologiyasi. Toshkent, 2017. 102-b.
2. Zvonkova T.V. Buxoro viloyati. Janubi-G'arbiy O'zbekistonning tabiiy sharoitlari va resurslari. Toshkent, "Nauka", 1965. 304-336-b.
3. Nazarov I.Q. Geografiya fanining asosiy muammolari. Toshkent, "Muharrir", 2013. – 212 b.

ИССЛЕДОВАНИЕ НАЧАЛЬНО-КРАЕВОЙ ЗАДАЧИ ДЛЯ УРАВНЕНИЯ ДРОБНОГО ПОРЯДКА С СИНГУЛЯРНЫМИ КОЭФФИЦИЕНТАМИ

*Аслонова Ш.С.
Магистрант БухГУ
sh.s.aslonova@buxdu.uz*

Samadova Mohigul Shoxnazarovna, Ergasheva Mavjuda Komiljonovna	Quyí zarafshon vohasi landshaftlarining ishlab chiqarish imkoniyatlari va ulardan samarali foydalanish224
Аслонова Ш.С. Хасанов И.И.	Исследование начально-краевой задачи для уравнения дробного порядка с сингулярными коэффициентами226
Норбоев.Ш.Ф., Шафиев.Т.Р.	Применение искусственного интеллекта в анализе данных: современные подходы и будущие перспективы228
Олимова Дилдора Ихтиёровна	Актуальные задачи выращивания лекарственных растений в условиях города бухара.....236
Ш.Б.Меражова, Ж.Ф.Тураев	Ряды фурье и их применения238
Zaynutdinova Dilnoza Kaxramonovna, Nematova Xurshida Hayitovna	Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirishda tabiiy-geografik omillarning ahamiyati240
Тохилов Б.Б, Вухарева В.С.	Применение рыски малой в рыболовстве и аквакультуре.....243
Nuritdinova Shahnoza Ravshanovna	Statsionar shredinger tenglamasining sonli yechimlari247
Д. К. Жумаева, Э.А. Худоярова	Гомо- ва гетеробиядроли комплекс бирикмаларининг эпр спектрлари249
Саидова Ситора Баходировна	Экофизиологические свойства зарубежных сортов пшеницы в условиях бухарской области252
Temirova Muyassarxon Ashraf qizi, Ergasheva Mavjuda Komiljonovna	Buxoro viloyati iqlimiy resurslaridan samarali foydalanishning geografik asoslari253
Хамдамов М.М., Равшанов Ш.А.	Наблюдение процесса естественной конвекции на примере теплового радиатора с использованием comsol multiphysics255
G.Y. Bo`ronova D.B.G`afurova S.U. Boltayeva	Moodle platformasi hisobotlarini shakllantirishda power bi dasturidan foydalanishning afzalliklari.....263
G.Y. Bo`ronova A.Sh. Rajabov	O`quv robototexnikasida modulli konstruktor detallarini standartlashtirish tamoyillari.....266
Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich Jo`raqulov Najmiddin Jahon o`g`li	Registrator ofisida talabalarga xizmat ko`rsatish sifatini yaxshilashda sun`iy intellektidan foydalanish metodikasi.....269
2-SHO`BA.	
XORIJIY TILLARNI O`RGANISHNING DOLZARB MASALALARI.	
Хакимова Диана Маратовна	Нарративные конвенции в контексте человеческой деятельности.....272
Keldiyorova Farangiz Qodir qizi	Improve children`s english speaking skills.....273
Djabbarova Feruza Odilovna, Rustamova Gulnoza Rustamovna	Sun`iy intellekt va tarjima jarayonning rivojlanish.....275
Feruza Odilovna Djabbarova, Risbayeva Farangiz Gaybullo kizi	Identifying the most common instructional methods for students learning english as a second language.....278
Djabborova Feruza Odilovna	Boshlang`ich sinflarda ingizliz tilini o`rgatishda uchraydigan qiyinchiliklar va samarali yondashuvlar280
Djabbarova Feruza Odilovna, Umirzoqova Musharraf Rashidovna	Sun`iy intellekt va tarjima jarayoninig rivojlanishi.....283
Djabbarova Feruza Odilovna, Salayeva Ruxsora Begnazar qizi	What are the most common types of instruction for students Learning english as a second language?.....285